

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARING HUQUQIY

MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Kumekova Asima Jumabaevna

Qoraqolpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani , 2-sonli DMTT direktori

Annotatsiya

Maqlada maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarini huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilagan pedagogik ta'lif-tarbiyaning zamonaviy mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek bolani jamiyatning faol fuqarosi qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilari hamda oilada ota-onaning funksiyalari ham ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konstitutsiya, street law, ijtimoiy muammo, huquqiy axborot.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, insonparvarlik g'oyalari qadim tarixiga ega. Ta'lif-tarbiya masalalari sharq mutafakkirlarining, xususan, buyuk ajdodlarimizning asarlarida ham yetakchi o'rinn tutadi. Inson huquqlari, adolat, tenglik, qonun ustuvorligi kabi azaliy qadriyatlar "Avesto" va "Qutadg'u bilig" dan tortib o'tgan asrning boshlaridagi jadidchilik harakati namoyandalari asarlarining bosh mavzusiga aylangan. Inson huquqlarini hurmat qilishga qaratilgan g'oyalari o'tmishdagi davlatchiligidan taraqqiyotida ham o'z ifodasini topgan. Qadimgi So'g'diyona va Xorazmdan tortib, somoniylar, xorazmshohlar, Temur va temuriylar davlatida inson huquqlari yuksak darajada e'zozlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-son Farmonini ustuvorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarni qonunga itoat va hurmat ruhida tarbiyalash demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartlaridan sanaladi. Shu bois ham mamlakatimizda tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasini ta'minlashdir.

Huquqiy demokratik davlat g'oyasi — xalqimizning asrlar davomida adolatli jamiyat, adolatli qonunlar, adolatli sud to'g'risidagi orzularining ifodasidir. Yurtimizda adolatga, adolatli qonunlarga asoslanib faoliyat yuritadigan davlat haqidagi fikrlar asrlar davomida shakllanib kelgan. Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz qonunga asoslangan adolatli jamiyat haqida teran fikrlarni ilgari surganlar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 44-moddasida esa: "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat

birlashmalarining xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi", — deb belgilangan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzliksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar (ayniqsa tarbiyachilar) nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim yoshidagilarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (bola savdosi, giyohvandlik, ota-onalarning o'z farzandiga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga nisbatan salbiy munosabati va h.k)ga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, maktabgacha ta'limda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning (IIV, prokratura va tuman, shahar bo'limi) faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-tehnologiyalardan foydalanimayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas yani bu boradagi ishlar samarasiz amalga oshirilmoqda. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni

singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini targ‘ib qilishi lozim. Bu borada quidagilar alohida o‘rin tutadi:

- maktabgacha ta’limda tarbiyachilar va metodistlar tomonidan yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;
- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda davlat ramzları bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;
- maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;
- davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi hamkorligini mustahkamlash lozim.

Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish quydagilardan iborat:

Bu borada “bolahuquqlari.uz” maxsus huquqiy portal yaratildi. Unda, Konstitutsiyanı o‘rgatishga doir ilk tushunchalar o‘z aksini topgan. Bunda:

kundalik hayotda qo‘llashga mo‘ljallangan boshlang‘ich huquqiy bilimlar; huquqni targ‘ib qiluvchi turli xil o‘yinlar, mashg‘ulotlar va dasturlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar va boshqa zarur ma’lumotlar berilgan.

Shuningdek, oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang‘ich qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biridir. Bundan tashqari oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan, har bir elementar huquqiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo‘llanma tayyorlash va bepul tarqatish lozim. Qolaversa quydagilar ham bolalarni huquqiy jihatdan tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi:

- bolalar uchun huquqiy mavzularda va odob-axloqning oddiy va kundalik qoidalarini bilishni, vatanparvarlik, qonunlarni hurmat qilish, o‘zbek xalqining tarixi va milliy qadriyatlarini o‘rgatishni targ‘ib qiluvchi turli multiplikatsion filmlarni yaratish va namoyish qilish;
- bolalar uchun huquqiy axborotni yetkazishga hamda kundalik turmushda qo‘llaniladigan normalar va odob-axloq qoidalarini o‘rgatishga qaratilgan audioertaklar, kinofilmlar va kinojurnallar ishlab chiqish va tarqatish;
- oilaviy notinchlik hamda bolalar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, bolalar orasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to‘g‘risida teleko‘rsatuvlar, tok-shouluar tayyorlash;
- kundalik turmushda ko‘p uchraydigan masalalarining huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjalarning mohiyatini uyma-uy yurib targ‘ib qilish, shuningdek, huquqiy

ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan flaer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish;

-yoshlar va ota-onalar o'rtasida nikoh yoshi, aliment to'lash shartlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to'g'risida muntazam ravishda huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

-ota-onlarning o'z majburiyatini bilmasligi va o'z bolasiga teng huquqli shaxs sifatida qaramasligi jamiyatimizda fuqarolarning huquq va burchlarini to'g'ri anglab yetmasligi, bolalar manfaatlarini hisobga olmasligi insonlarning o'tkir "ijtimoiy muammosiga" aylanib bormoqda.

Davlatimiz jamiyatimizning ushbu o'tkir muammolarni ijtimoiy institutlari orqali yechishga harakat qiladi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham huquqiy savodxonlikni oshirishni taqozo qilmoqda. Bunda:

-tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o'rganish bo'yicha ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash va chop etish;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga bolalar huquq va majburiyatlariga doir mashg'ulotlarni joriy etish. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining huquq asoslari va bola huquqlari bo'yicha bepul malakasini oshirish hamda mashg'ulotlarni o'tkazish uchun turli innovatsion loyihalarni yaratish choralarini ko'rish;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o'rgatish bo'yicha MTT tarbiyachilar uchun ham namunaviy qo'llanma yaratish;

-«street law» loyihasi amalga oshirilishini metodik ta'minlash choralarini ishlab chiqish;

-ko'ngillilar guruhlari (volontiyorlar) uchun (maktabgacha ta'lim tarbiyachilar) interaktiv mashg'ulotlar olib borish metodikasi bo'yicha treninglar o'tkazish;

-ko'ngillilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar uchun mashg'ulotlar o'tkazish;

-MTT flaerlar, bukletlar, komikslar, taqdimot slaydlari, videoroliklar ishlab chiqish va har bir ta'lim tashkilotiga yetkazish (har chorakda);

-ko'rgazmali huquqiy targ'ibot materiallarini bolalar va yoshlar e'tiboriga yetkazish;

-MTT tarbiyachilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda davlat ramzlarini e'zozlash, uning qadr-qimmatini anglash, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilishga doir aniq rejalar asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va turli xil qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazilishini ta'minlash;

-MTT tarbiyachilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda yo'l harakati qoidalariiga rioya qilishni o'rgatish, "ko'cha huquqi" tushunchasi loyihasini tashkil etish kabi fikr va mulohazalarni amalda ta'minlashning huquqiy asoslarini ro'yobga chiqarish muhim hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bolalarni huquq va manfaatlarini hamoya qilish va ta’minlash bugun maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlar va ota-onalar uchun ham farz, ham qarzdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan. Nyu-York, 1989 yil 20 noyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 mayda PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. bolahuquqi.uz sayti.
5. mdo.uz
6. huquqburch.uz
7. lex.uz